


## Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik

2018 yil yanvar-martida 450 yangi kichik korhona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 70,2 % tashkil qildi.

Eng ko'p kichik korhona va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (21,8 %), savdo sohasida (33,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (9,3 %), qurilishda tarmog'ida (15,1 %) tashkil etilgan.

### 2018 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2018 yilning yanvar–martida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 350,8 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 27,5 %) yoki 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 100,7 %ni tashkil qildi;



– 219,5 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 62,5 %) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 96,2 %ni tashkil qildi;



– 297,7 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 91,9 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 100,8 % ni tashkil qildi;



– 642,3 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib ( jami xizmatlar xajmining 69,3 %), 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 100,0 % ni tashkil qildi;



– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 80,5 % yoki 876,2 mlrd. so`mi (o`sinh sur`ati 97,7 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

– 14,6 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 65,3 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 1,0 mln. AQSh dollariga yoki 107,5 % ga ko`p;

– avtomobil transporti yuk aylanmasining 2,5 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 89,3 %i) ko`payishi ta`minlandi;


– yo`lovchi aylanmasining esa 2,5 % ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 96,1 % ) ko`payishi ta`minlandi;

Hududlar bo`yicha eng ko`proq sanoat mahsulotlari ishlab




chiqarish hajmi Urganch shahri (122,0 mlrd.so`m), Bo`got (43,2 mlrd.so`m) va Xazorasp (30,3 mlrd.so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.


### Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



### 2018 yil yanvar-martida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati




## 2018 yil yanvar-martda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri (219,0 mlrd.so'm), Xazarasp (138,8 mlrd.so'm) va Urganch (83,2 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

## 2018 yil yanvar-martda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Urganch shahri (194,9 mlrd.so'm), Xazorasp (59,3 mlrd.so'm) va Urganch (51,6 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2018 yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning  
hududlar bo'yicha ulushi  
(% da)**

	<b>Sanoat</b>	<b>Qurilish</b>	<b>Xizmatlar</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>27,5</b>	<b>91,9</b>	<b>69,3</b>
Urganch sh.	41,2	85,9	42,3
Xiva sh.	100,0	96,3	93,6
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	56,8	100,0	92,7
Gurlan	30,5	100,0	96,5
Qo'shko'pir	38,9	95,4	92,5
Urganch	77,8	88,0	81,4
Xazorasp	5,9	100,0	97,3
Xonqa	27,4	94,2	89,4
Xiva	100,0	81,1	88,3
Shovot	38,3	100,0	89,9
Yangiariq	23,6	100,0	90,0
Yangibozor	29,7	97,8	87,6

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Xiva shahri (100,0%), Xiva (100,0 %), va Urganch (77,8 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Xazorasp (97,3%), Gurlan (96,5 %) va Xiva shahri (93,6 %), Bog'ot (92,7 %), Qo'shkopir (92,5 %), Yangiariq (90,0 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Bo'got (100,0 %), Gurlan (100,0 %), Shovot (100,0 %) va Yangiariq (100,0 %) tumanlari tashkil etadi.

## 2018 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi


2018 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 47,6 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-martida 52,6 %).

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2018 yil I- chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o`tkazildi. Unda 36 respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma`lumotlari tahlili, respondentlarning 19,4 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 77,7 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda qurilishda va savdo sohasida – 20,0 % va 80,0 %, xizmatlar sohasida – 11,1 % va 88,9 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 25,0 % va 75,0 %, sanoatda – 25,0 % va 62,5 % ni tashkil qilganini ko`rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda–12,5 %,ni tashkil qildi.


### Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil I-chorak uchun





**Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin** uch oyda 50,0 % sanoat korxonalari, 40,0 % – savdo, 55,6 % – xizmatlar, 75,0 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 80,0 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

### Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko`rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.